

XITOIDA TARJIMASHUNOSLIKNING MUSTAQIL FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI HAQIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14600462>

Farzona NOROVA,

TDSHU stajyor-o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston

Tel.: +998972650456; E-mail: farzona.norova@yandex.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xitoyda tarjimashunoslik fanining mustaqil fani maqomiga ega bo'lish jarayoni ta'riflangan bo'lib, bu jarayon uch bosqichga bo'lingan holda yoritilib berildi.*

Kalit so'zlar: *tarjimashunoslik, Xitoy, mustaqil fan, shakllanish jarayoni*

Аннотация. *В данной статье описывается процесс становления переводоведения самостоятельной наукой и дисциплиной в Китае в трёх этапах.*

Ключевые слова: *переводоведение, Китай, независимая дисциплина, процесс формирования.*

Annotation. *This article briefly describes the process of translation studies becoming an independent science and discipline in China, dividing it into three stages.*

Keywords: *translation studies, China, an independent discipline, process of formation.*

Xitoy Buyuk Ipak Yo'lining Vatani bo'lib, qadimlardan boshqa mamlakatlar bilan savdo, iqtisod, madaniyat, ilm-fan borasida hamkorlik va almashinuv bilan shug'ullanib kelgan. Albatta, bu jarayonda og'zaki va yozma tarjimonlar turli mamlakatlar vakillari bilan aloqa o'rnatish, muloqot qilish, ma'lumotlarni saqlash kabi jihatlarda beqiyos rol o'ynagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, qadimdan tarjima sohasi Xitoyda keng amalda bo'lgan va o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ammo tarjimashunoslik fan sifatida faqatgina XX asrning 80-yillaridan shakllanib rivojlana boshladi [2, 1].

Tarjimani o'rganuvchi fan sifatida tarjimashunoslik hozirda Xitoyda mustaqil fan maqomiga ega. Xitoyda tarjima sohasining o'zni ahamiyatli bo'lgani sabab, tarjimashunoslik doirasidagi o'ziga xos masalalar va tadqiqotlar hozirda keng rivojlanmoqda. Tarjima masalalar bo'yicha chuqur va tizimli izlanishlar olib borish orqaligina tarjima nazariyasining to'xtovsiz rivojlanishiga ko'maklashish mumkin. Tarjimashunoslikning istiqbollari keng, chunki tarjima insoniyatning eng qadimgi

madaniy almashinuv faoliyati bo'lib, insonning moddiy hayoti va ma'naviy faoliyatida tobora muhim rol o'ynamoqda.

Tarjimashunoslikning asosiy maqsadi madaniy muloqot, tarjimada tilda yuz beruvchi o'zgarishlar kabi asosiy masalalarni o'rgangan holda ularni amaliy tadbiquga kiritishdan iborat. Xitoyda tarjimashunoslikning fan sifatida o'rnatilishining asosiy vazifasi hozirgi axborotlashtirish, globallashtirish va zamonning rivojlanish talablariga mos keladigan ilmiy nazariyani shakllantirishdan iborat bo'lib, buning uchun avvalo to'g'ri ilmiy mafkurani belgilash, ilmiy nazariy tanqidni yo'lga qo'ygan holda tarjima tanqidining nazariy mazmunini takomillashtirish va tarjimashunoslikning intizomiy maqomini yanada mustahkamlash va oshirishda davom etish kerak [4, 361].

XX asr 80-yillaridan boshlab, Xitoyda tarjimashunoslik jadal rivojlandi va hozirda samarali natijalarga erishdi. 1980-yillarda xitoy olimlari tarjima fan yoki san'at ekanligi haqidagi munozaralar "tarjimashunoslikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish kerakmi" degan munozaralarga olib kelgan, 2000-yillarda esa tarjimashunoslikda Xitoyga xos xususiyatlar hamda G'arb tarjima nazariyalarini joriy etishgacha masalalari qizg'in bo'lgan [4, 361]. Hozirda esa Xitoyda tarjimashunoslik fanining chet tili va adabiyotini o'rganish va o'qitish sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mustaqil fanga aylangan [5, 77].

Huang Djonglyan va Djang Syao Xitoyda tarjimashunoslikning shakllanishi va rivojlanishini 3 davrga bo'lishgan [2, 2]:

1. Boshlang'ich davr

20-asr o'rtalarigacha bo'lgan davr Xitoy tarjimashunosligining fan sifatida shakllanishida oldingi, ya'ni bunga zamin yaratgan davr bo'lgan. Jiang Yizhen (蒋翼振) 1927-yilda nashr etgan "Tarjimashunoslikning umumiy nazariyasi" (翻译学通论) asarida ilk bor "tarjimashunoslik" (翻译学) so'zini qo'llagan bo'lsa-da, bu fanning nomi bo'lib, u davrda fan tizimi hali shakllantirilmagan bo'lgan. Dong Chyusi (董秋斯) 1951-yilda birinchilardan bo'lib tarjimashunoslik fanini shakllantirishga chaqirdi va ma'lum darajada strategik tushunchani yaratdi. Bundan 30 yil o'tgach, 1980-yillarning oxirida tarjimashunosl olimlar g'arb tarjimashunosligi nazariyasi va amaliyotini Xitoy tarjima davrasida joriy qila boshlashdi.

1987-yilda esa Chjan Zechyan (张泽乾), Tan Zaysi (谭载喜) kabi olimlar "Xitoy tarjimasi" (中国翻译), "Xorijiy tillar" (外国语) va "Chet tilini o'rganish" (外语研究) jurnallarida tarjimashunoslik fanining o'rnatilishiga chaqirgan bir qancha maqolalarini chop etishdi. Ularning ishlari tarjimashunoslik fanining fan doirasi va g'oyaviy asosiga oydinlik kiritib, "tarjimashunoslik" atamasi uchun dastlabki asos

yaratdi. Ammo bularning hech biri tarjimashunoslikning fan sifatida o'rnatilishi bilan yakun topmadi.

2. Shakllanish davri

Bu davr 20-asrning so'nggi 20 yilini o'z ichiga olib, tarjimashunoslikning fan sifatida avvalgi shakllanish davridir. Shakllanish davrida asosiy e'tibor fanning o'ziga xosligini belgilash, mustaqil fan maqomiga ega bo'lish, xitoy ilmiy akademik hamjamiyatida fan ahamiyatini aniqlash va e'tirof etish, tarjimashunoslik fanining mazmuni, maqsadi, ko'lam, vazifalari, usullari kabilarni belgilagan holda fan strukturasini yaratishga qaratilgan edi.

1996-yilda Liu Michin (刘必庆) xitoy tarjimashunosligining "sokin davr"ga tushib qolganini ta'kidlaydi. 1998-yilda Huang Djendin (黄振定) "Tarjimashunoslik: san'at va fanning birlashuvi" (《翻译学：艺术与科学》) asarini yaratadi. 2000-yilda, Tan Zaysi va Peng Djuo'u (彭卓吾) har biri "Tarjimashunoslik" (翻译学) nomli monografiyani nashr etdi. Bunday asarlarning yaratilishi tarjimashunoslik fanining nazariy tizimi monografiyalar ko'rinishida shakllanishini anglatib, fanning ilmiy fan maqomi uchun muayyan isboti bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, Djeng Haylin (郑海凌) 2000-yilda "Adabiy tarjimashunoslik" asarini yaratdi, va tarjimashunoslik fanining ilmiy yo'nalishidan birining yaratilishiga zamin yaratdi.

Yuqoridagi asarlar tarjimashunoslik fanining mazmuni, tadqiqot doirasi, maqsad va vazifalarini to'liq va aniq shakllantirmagan bo'lsa-da, lekin bu uchun dastlabki tushuncha va ko'rinishni taqdim etib, keyingi davrdagi rivojlanish uchun kuchli asos va zamin yaratdi.

3. Rivojlanish davri

Mazkur davr 2000-yillardan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olib, bu davr mobaynida asosan tarjimashunoslik fanining mazmunini, fan tizimi va nazariy tuzilishini to'liq shakllantirishga va takomillashtirishga e'tibor qaratilgan.

Han Ziman (韩子满) bu davrni quyidagicha taqsimlagan: 1995-2003 yillarda fan bo'yicha xabardorlik ommaviy uyg'ongan va oshgan; 2003-2009 yillarda esa tarjimashunoslikda turli yo'nalishda keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi, ilmiy nazariya doirasining kengayishiga zamin yaratildi; 2009-yildan hozirgi kungacha nazariya va obyektning yangilanish va innovatsiya davri [1, 22-23].

Yang Zijian (杨自俭) fikricha, 2005-yilda xitoy tarjimashunosligi takomillashtirish davriga qadam bosib, fanni shakllantirish loyihasini takomillashtirish va amalga oshirishga e'tibor qaratish lozim edi [6, 2].

2004-yil fevral oyida Shanxay xorijiy tillar universiteti tarjimashunoslik bo'yicha mustaqil ilmiy daraja taqdim etish dasturini tashkil etishni rasman tasdiqladi va 2005-yilda tarjimashunoslik yo'nalishi bo'yicha magistr va doktorantlarni jalb qila boshladi. Bu esa tarjimashunoslikning mavhum fandan amaliy fanga aylanganligini belgiladi. Ilmiy daraja taqdim etish dasturining yo'ga qo'yilganligi esa tarjimashunoslik mustaqil ilmiy yo'nalish va fan sifatida to'liq shakllanganligini, bundan buyog'iga takomillashish va etilish davriga kirganini anglatadi.

So'nggi 20 yil ichida Xitoyda tarjimashunoslikning turli tadqiqot yo'lishida ko'plab ilmiy adabiyotlar dunyo yuzini ko'rdi. Gu Djengkun (辜正坤) ning 2002-yildagi "Meta tarjimashunoslik" (玄翻译学) maqolasi, Huang Djonglyan (黄忠廉) va Li Yashu (李亚舒) ning 2004-yildagi "Ilmiy tarjimashunoslik" (科学翻译学) nomli monografiyasi, 2007-yilda Vang Binchin (王秉钦) ning "Madaniy tarjimashunoslik" (文化翻译学) nomli monografiyasi, 2009-yilda Suy Jun (许钧) va boshqalar tomonidan yaratilgan "Tarjimashunoslikka kirish" (翻译学概论) asari, 2013-yilda yaratilgan Suy Genshen (胡庚申) ning "Ekologik tarjimashunoslik" (生态翻译学) va Huang Djonlyan (黄忠廉) va boshqalarning "Amaliy tarjimashunoslik" (应用翻译学) asarlar, Chen Dongcheng (陈东成) ning 2017-yildagi "O'zaro almashinuvga asoslangan tarjimashunoslik" (大易翻译学) asari, Vu Djijye (吴志杰) 2018-yildagi tomonidan olib borilgan "Uyg'un tarjimashunoslik" (和合翻译学) asarlarining yaratilishi "Xitoyda amaliy tarjimashunoslikning tarmoqlarining yuzaga kelishiga hamda nazariyaning kurtak otishidan bosqichma-bosqich etuklikka qadar bo'lgan tarixiy jarayoniniga guvoh bo'ldi" [3, 84].

"Xitoy tarjimasi" (中国翻译), "Xitoy ilm-fan va texnologiya tarjimasi" (中国科技翻译), "Shanxay tarjimasi" (上海翻译), "Shaqr tarjimasi" (东方翻译), "Tarjimashunoslik" (翻译研究) kabi ilmiy-akademik jurnallar esa olimlar va o'rganuvchilarga nazariy bilim olishlari, o'zaro almashinuv va amaliy natijalarni namoyish etish uchun platforma yaratdi. Shuningdek, Xitoyda Xitoy tarjimonlar uyushmasi (中国翻译学会), Xitoy qiyosiy adabiyoti jamiyati kabi tarjimashunoslikka qaratilgan uyushma va jamiyatlar tashkil etilib, tarjimashunoslikning rivojiga katta hissa qo'shishdi.

Hozirda Xitoyning etuk oliy ta'lim muassasalarida tarjimashunoslik, yozma tarjima va og'zaki tarjima ta'lim yo'nalishlari joriy etilgan bo'lib, mutaxassis tarjimon kadrlarni tayyorlash, dolzarb tarjimashunoslik muammolari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, xorijiy adabiyotlarni xitoy tiliga, xitoy tilidagi turli sohadagi adabiyotlarni xorijiy tillarga professional darajada tarjima qilish kabi sohalarda beqiyos rol o'ynamoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xitoyda tarjimashunoslik fanining mustaqil fan maqomiga ega bo'lishi ma'lum muammolar, ko'plab bahslar va e'tirozlarga duch kelgan. Ammo tarjima va tarjimashunoslikning hozirgi globallashtirilgan dunyoda ahamiyatli rol o'ynayotgani, Xitoydagi ko'plab tarjimashunoslarning harakati va ilmiy salohiyati kabilar tufayli tarjimashunoslik 21-asrga kelib rasman mustaqil fan sifatida shakllandi va o'qitila boshladi. Lekin hali ham Xitoyda tarjimashunoslik fanining yanada rivojlanishi muayyan muammolarga duch keladi. Hozirda xitoy tarjimashunoslari tarjima sohasidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ilmiy mulohaza yuritish, fanning nazariy tuzilmasini mustahkamlash, xitoy an'anaviy tarjima nazariyasining mohiyatini saqlab qolgan holda g'arbiy tarjimashunoslik nazariy manbalaridan oqilona foydalanish orqali Xitoyda tarjimashunoslik fanining etuk shakllanishi, ilmiy jihatdan rivojlanishi va kelajakka yanada keng qamrovli istiqbollarga ega bo'lishi uchun harakat qilmoqdalar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1] – 韩子满. 改革开放以来的中国笔译研究：学科的诞生、成长与成熟. – 北京：外语教育研究沿, 2019, No.1, 页 20-26, 87.
- [2] – 黄忠廉, 张潇. 翻译学科百年：演进、反思与趋势. – 上海：上海翻译, 2020, No.6, 页 1-7.
- [3] – 蓝红军. 译学方法论研究. – 北京：外语教学与研究出版社, 2019, 220 页.
- [4] – 唐燕. 中国翻译学研究：学理反思与前瞻. – 黑龙江佳木斯市：外语研究, 2012, No.10, 页 361-362.
- [5] – 许钧, 穆雷. 中国翻译学研究 30 年(1978-2007). – 上海：外国语, 2009, No.1, 页 77-87.
- [6] – 杨自俭. 如何推动翻译学的建设与发展. – 上海：上海翻译, 2005, No.3, 页 2-3.